

## **MAKEDONIYALIK ALEKSANDR DAVLATINING VUJUDGA KELISHI VA PARCHALANISHI**

*Durdiyeva O'g'iljon Axmedjon qizi*

*Urganch Davlat universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti*

*Tarix(mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyni davlatini vujudga kelishi va gullab yashnashi, parchalanishini o'rGANADI. Aleksandrning davlati haqidagi tadqiqotlar tarixning rivojlanishi va umumlashtirishga yordam beradi. Tadqiqotlar Aleksandr Makedonskiy asos solgan davlatni tarixdagi o'rni haqida aniq va mukammal ma'lumotlarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlari:** Pellaga shahri, Xeroniya jangi, Aleksandr, Aleksandriya Esxata, Adriatika dengizi, Diadoxlar.

**Аннотация:** В статье рассматривается расцвет и падение государства Александра Македонского. Исследование государства Александра помогает развивать и обобщать историю. Исследование дает точную и исчерпывающую информацию о месте в истории государства, основанного Александром Македонским.

**Ключевые слова:** город Pellaga, битва при Херонии, Александр, Эсхата Александрийская, Адриатическое море, диадохи.

**Abstract:** This article examines the rise and fall of the empire of Alexander the Great. The research provides accurate and comprehensive information about the place in history of the state founded by Alexander the Great.

**Key words:** city of Pellaga, Battle of Chaeronia, Alexander, Eschata of Alexandria, Adriatic Sea, Diadoches

Makedoniya Bolqon yarim orolining shimolida joylashgan qadimiy o'lkalardan biridir.U juda qulay geografik o'ringa ega bo'lib,tog'lik va tekislik qismlarga bo'linadi.

Miloddan avvalgi VI asr oxiri –V asr boshlarida Makedoniya dastlabki tabaqalanish va ilk davlat tashkil topadi.Davlat birlashuvi Arxelay davrida mustahkamlanadi.U dengiz bo'yidagi yangi poytaxt Pellaga shahriga asos solgan.Arхелай Xakidka yarim oroli va Fessaliyaning ba'zi joylarini Makedoniya qo'shib oladi.Arхелай vafotidan so'ng, vorislari uning ishini davom ettirgan.Makedon padshosi Filipp II (er.avv.359-336-yillar) harbiy islohat o'tkazib makedon falangasini tuzdi.Er.avv.IV asr o'rtalarida Makedoniya kuchli qo'shin bilan Epir va Frakiyani egalladi.Shu vaqtadan u yunon davlatlarining ishlariga faol aralasha boshlaydi.Er.avv 355-yilda Makedoniya Fiva va Fokida o'rta sidagi urushga aralashib,Fokidani tor-mor qiladi.Yunon davlatlaridan faqat Afina Filipp II ga qarshi tura olishi mumkin edi.Demosfen Afina,Fiva,Korinf va boshqa yunon shaharlari birlashgan kuchli guruhini tuzdi.Er.avv.337-yil avgust oyida Beotiyada hal qiluvchi jang bo'ladi.Makedon qo'shnlari yunonlarni tor mor qildi.Ayni paytda barcha yunon shaharlari Eronga qarshi urushga tayyorgalik ko'rishlari lozim edi.Urushga qizg'in tayyorgalik ketayotgan bir vaqtida Filipp II o'z qizining to'yida fitnachilar tomonidan o'ldiradi.Filip II vafotidan so'ng taxtga 20 yoshli Aleksandr o'tiradi.Er.avv 334-yilda sharqqa yurish boshladi.Forslar bilan birinchi jangi Kichik Osiyodagi Granik daryosi bo'yida bo'ladi.Sard va Gordiy shaharlari bosib olinadi.Undan so'ng, Aleksandr Kilikiya orqali shimoliy Suriyaga o'tadi.Mil. avv.333 yilda yunon- makedonlar Doro III bilan to'qnashadi.Aleksandr katta qiyinchilk bilan g'alaba qozonadi.Undan so'ng Damashq shahrida Doro III ning xazinasini bosib oladi,bu Aleksandr qo'shnlarning moddiy ta'minotini ancha yaxshilanadi.Tir va G'azo shaharlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatadilar.G'azoni bosib olinishi yunon-makedonlarga Misrga yo'l ochadi.U keyinchalik Misrni, Mesopatamiyani,Bobilni,Eroni,O'rta Osiyo,Suriya,Hindistonda katta hududlarni bosib oladi. O'rta Osiyoda bir nechta shahar qurdirgan.Bu shaharlar uning nomini bilan Oksdag'i Aleksandriya,Aleksandrya Esxata,Marg'iyona Aleksandryasi va

hakoza tarzida atalgan.Aleksandr yurishlari natijasida g'arbda Adriatika dengizidan sharqqa Hindistongacha,Shimoliy Kavkaz to'g'laridan janubda Nil daryosi o'rta oqimagacha cho'zilgan hududni qamrab olgan ulkan davlat vujudga keldi.Bu davlat Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan avvalgi ahamoniylar davlatini eslatar edi.Sharq yurishidan so'ng Aleksandr Suzada katta bayram tantanasini o'tkazib,unda 10000 askar mahalliy ayollarga uylantiradi.Aleksandr endilikda uzi orzu qilgan g'arbiy yurishga ham tayyorgarlik ko'radi.Shu vaqtda Mesopatamiyadagi Opis shahrida Makedoniyalik Aleksandrning qo'zg'oloni bo'lib o'tadi.Aleksandr bu qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostiradi.Shuni ham Ta'kidlash kerakki, sharqqa yurish oldidan o'z qarindoshi Antipatrni Makedoniya hokimi etib tayinlangan edi.Antipatr Makedoniyada o'z bilganicha ish tutar, Aleksandrga itoat etishni xohlamas edi. Aleksandr uni Bobilga chaqiradi.U Bobilga kelishni xohlamay, o'g'li Iollani yuboradi.Iolla Bobilga kelib ziyofat beradi. Ziyofatdan so'ng Aleksandr o'g'ir kasal bo'lib qoladi.Ziyofatni o'n ikkinchi kuni u vafot etadi.Aleksandr o'limidan so'ng ulkan davlat parchalana boshladi.Oxir oqibat u bosib olgan hududlarda Ellin davlatlari tizimi shakllandi. Aleksandr boshliq yunon-makedoniyaliklar istilosidan keyingi 300 yillik davr Sharq mamlakatlar tarixi Ellin davlatlari tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.Aleksandr o'zining vorisini rasmiy jihatdan tayinlashga ulgurmadi, bu uning lashkarboshchilari o'rtasida Aleksandr merosi uchun uzoq kurashga olib keldi. Bu kurash bir nechta o'n yillarga cho'zilib, juda ko'p qon to'kishga olib keldi.Aleksandr vafotidan so'ng,uning eng yaqinlari diadoxlar o'rtasidagi kurash 40 yillik urush natijasida Aleksandr davlati 3 asosiy eng yirik podsholiklar Makedoniya (unga bo'ysundirilgan Yunoniston) Misr (suriyaning janubiy qismi va Kichik Osiyoning ba'zi viloyatlari) va Salavkiylar davlati (Osiyo mulklarining asosiy qismi) tashkil topdi. Ulardan tashqari ellin davrida bir qancha katta-kichik davlat birlashmalari Pergarm,Vifiniya,Pont. Kappadokiya, Yunon- Baqtriya va Parfiya podsholiklari mavjud edi.

**Xullosalar:** Aleksandr Makedonskiy haqida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima aralashib ketgan afsonalari bizgacha yetib kelgan. Uning davrida davlatning sarhadlari

nihoyatda kengayadi. Aleksandr 33 yoshida vafot etgan. Aleksandrning siyosati faqat yangi yarlarni o'zlashtirishdan iborat bo'limgan. Uning o'lmidan so'ng ulkan imperiya parchalanib ketdi, chunki uning merosxo'ri yoki munosib davomchisi yo'q edi. Muhimi, uning siyosati savdo aloqalarini kengaytirdi, sharqqa grek madaniyati ta'sirini oshirdi, fan va texnikani keyingi rivojiga asos yaratdi, yagona til(koyne) ni joriy qildi va xalqlarning vaqtinchalik teng huquqligini ta'minlab berdi. Ellin davriga keladigan bo'lsak qadimgi yunon va Sharq dunyosining iqtisodiy, siyosiy, va madaniy jihatdan qo'shilib, bir-biriga ta'sir etish davridir. Bu davrda Sharq mamlakatlari bilan G'arb davlatlari o'rtaсидаги savdo-sotiq ishlari ancha rivoj topgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. A. Kabirov-“Qadimgi Sharq Tarixi” “Tafakkur” Toshkent 2016.280-281betlar
2. R.Rajabov - “Qadimgi Dunyo Tarixi” “Fan va texnologiya” Toshkent 2009.286-292 betlar.
3. 3.A.Sagdullayev,B. Aminov,O'. Mavlanov, N.Norqulov -“O'zbekiston tarixi:davlat va jamiyat taraqqiyoti” “Akademiya” Toshkent 2000.44-46 betlar.
4. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
5. <https://arxiv.uz>